



DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI HUDUDLAR IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

THE ROLE OF STATE BUDGET REVENUES IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS

¹Samandarova Gulmira
Muzaffar qizi

¹PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya Annotation

Uzb - Maqolada davlat budjeti daromadlarining hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni keng yoritilgan bo'lib, ularning mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish, aholining farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, unda 2020-2024-yillarda davlat budjeti daromadlarining tarkibi va YaIMdagi ulushi batafsil tahlil qilinib, daromad manbalarining dinamikasi, asosiy o'zgarishlar va budjet siyosatining samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan.

Eng - The article provides an in-depth analysis of the role of state budget revenues in the socio-economic development of regions, emphasizing their importance in improving regional infrastructure, enhancing the well-being of the population, and ensuring sustainable economic growth. Additionally, the composition of state budget revenues and their share in GDP during the period of 2020-2024 are thoroughly examined, highlighting trends, key changes, and the effectiveness of fiscal policy in relation to macroeconomic indicators.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ davlat budjeti, budjetni rejalashtirish, soliq, YaIM, mahalliy budjet.
❖ state budget, budget planning, tax, GDP, local budget.

Kirish.

Bugungi kunda davlatning iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirishda davlat budjeti alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, budjet daromadlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Davlat budjeti orqali to'planadigan moliyaviy resurslar hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash kabi maqsadlarda keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish, ulardagi resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda davlat budjeti daromadlarini to'g'ri shakllantirish va ulardan samarali foydalanish ustuvor ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy budjetlarning mustaqilligini oshirish, soliq va budjet siyosatini hududiy sharoitlarga moslashtirish orqali har bir hududning iqtisodiy salohiyatini yoritish mumkin.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbolli ko'rsatkichlarini ilmiy asosda bashorat qilish nafaqat davlat, balki jamiyat va har bir fuqaro uchun ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, har bir shaxs iqtisodiy tizimda yuz berayotgan turli holatlar — xususan, ishsizlik, inflyatsiya, narxlarning o'sishi, hayot uchun zarur bo'lgan mahsulotlarning ortiqcha yoki yetarli darajada ishlab chiqarilmasligi kabi iqtisodiy jarayonlarning ijobiy yoki salbiy oqibatlarini bevosita eks ettiradi. Mazkur iqtisodiy jarayonlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish zarurati kelajakni oldindan ko'ra bilish imkoniyatlarini izlab topishni taqozo etadi. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kelajakni bashorat qilishda ilmiy va empirik yondashuvlardan foydalaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

T. Malikov va N. Xaydarovlarning ta'rifiga ko'ra, davlat budjeti — bu turli darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish hamda ularni ijro etish jarayonida, mamlakatning umummilliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi asosida, moliya tizimining bo'g'inlari o'rtasida yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad qiymatini markazlashtirilgan tarzda taqsimlash va qayta taqsimlash maqsadida shakllantiriladigan moliyaviy rejadir [1].

J.Ergashov esa hududlarning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olib, mahalliy budjet rejalarini takomillashtirish yo'llarini o'rganadi. Uning fikriga ko'ra, har bir hududning salohiyatiga mos keluvchi yondashuvlar budjetning umumiy samaradorligini ta'minlaydi [2].

O'rta muddatli istiqbolda davlat budjeti daromadlarini rejalashtirishga doir fikr va mulohazalarda U. Tulakov ko'chmas mulk solig'ini mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash hamda hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishda muhim vosita sifatida e'tirof etadi [3].

I. Niyazmetov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonning soliq qonunchiligi, fiskal siyosati va budjet

daromadlari shakllanishi sohasidagi islohotlarni asoslash masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lib, unda mamlakatimiz soliq tizimidagi mavjud nomuvofiqliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat budjeti daromadlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu daromadlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir hududning moliyaviy salohiyati, budjet daromadlari manbalari, ularni shakllantirish va samarali boshqarish mexanizmlari orqali hududiy rivojlanish sur'atlarini oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, davlat budjeti daromadlarining hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklar sabablarini tahlil qilish hamda mavjud resurslardan qay darajada samarali foydalanilayotganini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalliy budjetlarning shakllanishi, ularning xarajatlar qismi bilan o'zaro bog'liqligi, soliq tushumlarining hududlar bo'yicha taqsimoti va ularning hududiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

Iqtisodiyotning o'sish sur'atlari, soliq stavkalari va soliq tizimining samaradorligi, davlat tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning sifati va qamrovi, shuningdek, korrupsiyani kamaytirish hamda resurslardan samarasiz foydalanishni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat budjeti daromadlarining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

2020-2024-yillarda davlat budjet daromadlarining YaIMdagi ulushi [5]

Davr	Davlat soliq qo'mitasi tushumlarining davlat budjeti daromadlari hajmidagi ulushi	Davlat soliq qo'mitasi tushumlarining YaIMdagi ulushi	Davlat budjeti daromadlarining YaIMdagi ulushi
2020-yil	78	17,1	22,00
2021-yil	77	17,30	22,40
2022-yil	74	16,60	22,50
2023-yil	72	18,50	21,70
2024-yil	73	22,00	24,00

Ushbu jadvalda budjet daromadlarining YaIMga nisbatan ulushidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Jumladan, Davlat soliq qo'mitasi tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi ham ko'rib chiqilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, davlat budjeti daromadlarining YaIMdagi ulushi 2020-yilda 22 foizni tashkil etgan. 2021 va 2022-yillarda bu ko'rsatkichda sezilarli o'zgarish kuzatilmagan bo'lsa-da, 2023-yilda biroz pasayib, 21,7 foizga tushgan. Biroq 2024-yilga kelib, bu ulushning 24 foizga yetishi prognoz qilingan.

Soliq yukining maqbul darajasi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab alohida belgilanadi. Odatda, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeliga ega davlatlarda soliq yukining nisbatan yuqori darajasi kuzatiladi. Bunday sharoitda asosiy omil – yig'ilgan soliq tushumlarining davlat tomonidan qayta taqsimlanish samaradorligi hisoblanadi. Xususan, davlatning ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun yo'naltirayotgan mablag'lari

soliq yukining yuqoriligini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi.

Davlat soliq qo'mitasi tushumlarining YaIMdagi ulushiga nazar tashlansa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 17,1 foizni tashkil etgan. 2021-yilda biroz oshib, 17,3 foizga yetgan, biroq 2022-yilda 16,6 foizga pasaygan. Keyingi ikki yilda esa o'sish kuzatilib, 2024-yilda 22 foizga yetishi prognoz qilingan. Bu holat soliq siyosatining samaradorligi va iqtisodiy faollikning oshib borayotganidan dalolat beradi. Ya'ni, davlat budjeti daromadlarining o'sishi fiskal siyosatning aniq va maqsadli olib borilayotganini, soliq tushumlarini boshqarish va yig'implarni taqsimlash mexanizmlarining takomillashganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Davlat soliq qo'mitasi tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 2020-yildagi 78 foizdan boshlab asta-sekin pasayib, 2024-yilga borib 73 foizga tushishi mumkin. Bu esa davlat daromadlarining diversifikatsiyalashayotgani, ya'ni boshqa daromad manbalarining ham ulushi ortib borayotganini anglatadi.

2-jadval

2020-2024-yillarda davlat budjet daromadlari tarkibi [5]

Davr	Yalpi ichki mahsulot	Davlat budjeti daromadlari	Davlat soliq qo'mitasi	Davlat bojxona qo'mitasi	Boshqa daromadlar
2020-yil	605 514,90	132 938	103 562	24 708	4 668
2021-yil	738 425,20	165 243	127 851	33 602	3 602
2022-yil	896 617,90	201 864	148 501	44 025	7 338
2023-yil	1 066 569,00	231 721	165 409	56 394	9 394
2024-yil (prognoz)	1 236 126,55	227 703	197 643	74 687	16 271

2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibi tahlili mazkur ko'rsatkichlarning ijobiy o'sish trendida bo'lganini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2020-yilda davlat budjeti daromadlari 132,94 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 270,70 trln so'mgacha yetgan. Bu esa nominal qiymatda deyarli ikki barobar o'sishni anglatadi. Xususan, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan yig'ilgan tushumlar 2020-yilda 103,56 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 197,64 trln so'mga yetib, qariyb 91 foizlik o'sishga erishilgan. Davlat bojxona qo'mitasi yig'implari esa 24,71 trln so'mdan 74,69 trln so'mgacha, ya'ni 202 foizga yaqin oshgani kuzatilmoqda.

Shunga qaramay, budjet daromadlaridagi bu o'sish faqat nominal qiymatlar asosida baholansa, aniq iqtisodiy xulosa chiqarish qiyin bo'ladi. Shu sababli, mazkur ko'rsatkichlarni real tahlil qilish uchun yalpi ichki mahsulot

(YaIM) deflyatori asosida hisoblash va real narxlarda tahlil qilish zarur. Bu yondashuv inflyatsiya ta'sirini bartaraf etgan holda budjet daromadlarining haqiqiy o'sish sur'atini aniqlash imkonini beradi.

2022–2024-yillar davomida esa YaIM prognoz ko'rsatkichlari va budjet prognozlari o'rtasidagi tafovutlar biroz barqarorlashgan. Masalan, 2022-yilda YaIM 122 foiz, budjet 115 foiz o'sgan. 2024-yilga kelib esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 127 foiz va 125 foiz o'sishi kutilmoqda. Bu holat makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli olib borilayotganini, prognoz va budjet rejalashtiruvchi o'rtasidagi farq qisqarib borayotganini, ya'ni fiskal boshqaruvda aniqroq yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu tariqa, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va budjet siyosatining prognozlari bilan uyg'unligini oshirish yo'lida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda.

3-jadval

2019–2023 yillardagi YaIM real va nominal ko'rsatkichlari tahlili [5]

Davr	YaIM nominal (mln. so'm)	YaIM real (narxlarida, mln so'm)	YaIM deflyatori (%)	YaIM o'sish sur'ati (%)
2019-yil	532 712	532 712	100,0	106
2020-yil	605 514,9	543 550	111,4	102
2021-yil	738 425,2	584 017	113,5	107
2022-yil	896 617,9	617 172,2	114,9	106
2023-yil	1 066 569,0	654 327,3	112,2	106

Jadvallar asosida Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning real va nominal o'sishlari, YaIM deflyatori hamda o'sish sur'atlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilish orqali iqtisodiy o'sishning sifati va inflyatsiya omilining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir darajasini aniqlash mumkin.

YaIMning nominal ko'rsatkichlari yildan-yilga barqaror o'sib borgan. Jumladan, 2019-yilda nominal YaIM 532 712,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 1 066 569,0 mlrd so'mga yetgan. Bu

es deyarli ikki barobar o'sishni anglatadi. Biroq, real YaIM (2019-yil narxlarida) ham o'sib borganiga qaramay, uning o'sish sur'ati nominal ko'rsatkichlarga nisbatan ancha past bo'lgan. Bu farq, asosan, inflyatsiya darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Masalan, 2020-yilda real YaIM 543 550,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 2019-yildagi hajmga nisbatan nisbatan past o'sish sur'atini ko'rsatadi. Bu holat narxlar darajasining ortishi – ya'ni, inflyatsiya ta'sirida yuzaga kelgan YaIM deflyatorining o'sishi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli, real o'sish sur'atlari iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy dinamikasini ifodalasa,

nominal ko'rsatkichlar esa ko'proq narx o'zgarishlarining ta'sirini ham qamrab oladi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti daromadlari hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Hududlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, budjet mablag'larini adolatli taqsimlash va daromad manbalarini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Bugungi kunda mahalliy budjetlarning salohiyatini oshirish, soliq bazasini kengaytirish va samarali moliya boshqaruvini yo'lga qo'yish hududiy barqarorlikning asosiy garovi hisoblanadi.

Shuningdek, budjet daromadlarining to'g'ri shakllanmasligi, hududlar o'rtasidagi notenglik, ayrim hududlarda iqtisodiy faoliyatning sustligi kabi muammolar mavjud. Bu esa hududlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikka olib keladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun tizimli va maqsadli yondashuv amalga oshirilishi lozim.

Davlat budjeti daromadlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy o'sish sur'atlari, soliq siyosatining turli toifalar kesimidagi adolatli taqsimoti, ishlab chiqarish tarmoqlarining diversifikatsiyalashuvi va inflyatsiya darajasi ulardan eng muhimlari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar muvozanatda saqlanishi uchun ichki bozorda sifatli muhit yaratish, tashqi savdo sharoitlarini yaxshilash va chet el

investitsiyalarni jalb qilish kabi choralar bilan bir qatorda, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirish ham muhimdir. Shu yo'l bilan mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishish hamda budjet daromadlari solikli tushumlarini samarali boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Davlat budjeti daromadlarini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Hududiy soliq salohiyatini rivojlantirish: Har bir hududda mavjud resurslar va iqtisodiy imkoniyatlarni baholab, yangi soliq manbalarini aniqlash.

2. Mahalliy budjetlar mustaqilligini kuchaytirish: Mahalliy budjetlarga ko'proq mustaqillik berish orqali hududlarning moliyaviy siyosatini olib borish imkoniyatini kengaytirish.

3. Iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish: Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalar jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali hududlarda budjet daromadlarini oshirish.

4. Adolatli taqsimot mexanizmlarini joriy etish: Budjet mablag'larini hududlar o'rtasida ehtiyoj va rivojlanish darajasidan kelib chiqib taqsimlash tizimini takomillashtirish.

5. Moliyalashtirishning samaradorligini oshirish: Har bir hududda olinayotgan budjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha nazorat va tahlil tizimini mustahkamlash.

6. Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish: Iqtisodiy jihatdan zaif hududlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida hududlararo moliyaviy hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – B.32.
2. Ergashev J.A (2023) Mahalliy budjet daromadlarini prognozlashtirish hamda daromadlarni oshirish masalalari mavzusida yozilgan iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.
3. To'lov U.E (2022) Ko'chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish mavzusida yozilgan iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.
4. Niyazmetov I. M. (2018) Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash mavzusida yozilgan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati.
5. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti.